O‘zbekiston Respublikasi MCHJ shaklidagi “AUDIT-HISOB MARKAZI” auditorlik tashkiloti	AUDIT-HISOB MARKAZI AUDITORLIK TASHKILOTI	Республика Узбекистан АО в форме ООО “AUDIT-HISOB MARKAZI”
O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsatnomasiga ega bo’lgan Auditorlik tashkilotlari reestriga kirgan.		Включён в реестр аудиторских организаций, имеющих разрешение Министерство финансов Республики Узбекистан

«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ boshqaruviga

«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ(STIR: 200 697 734) ning 2023 yilgi MHXS talablariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarini audit tekshiruvidan o‘tkazish yuzasidan

MUSTAQIL AUDITOR XULOSASI

Biz «Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ ning 2023 yil 31 dekabr holatiga bo‘lgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotidan, ko‘rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida foyda va zararlar to‘g‘risida hisobotdan, xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risida hisobotdan, pul oqimlari to‘g‘risida hisobotdan, shuningdek hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlardan iborat bo‘lgan ilova qilinayotgan moliyaviy hisobotlari auditini o‘tkazdik.

Jamiyat rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek korxona rahbariyati firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko‘rsatishlardan xoli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo‘ladi.

Bizning javobgarligimiz mazkur moliyaviy hisobotlar bo‘yicha o‘zimiz o‘tkazgan audit asosida fikr bildirishdan iborat. Biz auditni Auditning Xalqaro standartlariga muvofiq o‘tkazdik. Mazkur standartlar bizga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko‘rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch bildirishni ta'minlaydigan tarzda rejalashtirish va o‘tkazish majburiyatini yuklaydi.

Audit moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan summalar va ochib beriladigan ma'lumotlar bo‘yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o‘z ichiga oladi. Tanlangan tartib-taomillar auditorning mulohazasiga, shu jumladan firibgarlik yoki xato tufayli moliyaviy hisobotlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muhim buzib ko‘rsatishlar risklariga berilgan bahoga bog‘liqdir. Bunday risklarni baholashda, korxona ichki nazorat tizimining samaradorligi to‘g‘risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida, auditor tadbirkorlik sub'ekti o‘z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi va haqqoniy taqdim etishi bilan bog‘liq bo‘lgan ichki nazorat tizimini ko‘rib chiqadi.

Audit o‘tkazish qo‘llanilayotgan hisob siyosatining maqbulligini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholarning asosliligini baholashni, shuningdek moliyaviy hisobotlarning umumiy ifodalanishini baholashni ham o‘z ichiga oladi.

Biz o‘zimiz olgan auditorlik dalillari o‘z auditorlik fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun etarlicha tegishli dalillardir deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotlar «Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ ning 2023 yil 31 dekabrga bo‘lgan moliyaviy holatini ko‘rsatilgan sanada tugagan yil mobaynida uning moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq taqdim etgan.

11.03.2024 yil

(imzo)

Ergasheva Z.E.
MCHJ «AUDIT-HISOBMARKAZI» AT
bosh direktori, auditor

STIR: 203 798 660
O‘zbekiston. Qarshi sh, I.Karimov 212/65 uy